

YANGIBOYEV Adhambek Esanovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrasini
tayanch doktoranti

MOVAROUNNAHRLIK MASHHUR MUFASSIRLAR VA ULARNING TAFSIRLARI

ИЗВЕСТНЫЕ МУФАССИРЫ МАВАРАУННАХРА И ИХ ТАФСИРЫ

FAMOUS MUFASSIRS OF MAWARANNAHR AND THEIR TAFSIRS

Annotatsiya: Maqolada Movarounnahrda tafsirning hadis ilmidan alohida ilm sifatida ajralib chiqish jarayoni hamda ushbu zamindan yetishib chiqqan mashhur mufassirlar, ularning hayoti, ilmiy faoliyati va ular yozib qoldirgan tafsir asarlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, Qur'on, tafsir, mufassir, hadis, kalam, faqih, tarix.

Аннотация: В статье представлена информация о процессе отделения науки тафсир от науки хадис в Маварауннахре, а также о известных мufассирах, вышедших из этого края, их жизни, научной деятельности и написанных ими тафсиров.

Ключевые слова: Маварауннахр, Коран, тафсир, мufассир, хадис, калам, факих, история.

Annotation: The article provides information about the process of separation of the tafsir science from the hadith science in Mawarannahr and the famous mufassirs who grew up in this land, their lives, scientific activities, and their tafsir books.

Keywords: Mawarannahr, Koran, tafsir, mufassir, hadith, kalam, faqih, history.

KIRISH

Movarounnahrda tafsir ilmining vujudga kelishi va rivojlanishi boshqa ilmlar kabi bu diyorga islom dini kirib kelishi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Butun islom olamiga hadis, fiqh, kalam ilmlari, arab tili grammatikasi va boshqa barcha islom yo'nalishlarida yetuk ulamolarni tarbiyalab chiqargan ushbu diyordan buyuk mufassirlar

ham yetishib chiqdi. Dastlab, boshqa joylar kabi bu yurtlarda ham Qur'oni karim tafsiriga oid rivoyatlar muhaddis ulamolar to'plagan hadis kitoblari tarkibida bo'lgan. Hijriy ikkinchi asrga kelib tafsir ilmi hadis ilmidan alohida ajralib chiqa boshladi. Movarounnahr zaminidan buyuk mufassirlar yetishib chiqdi va ular yozgan asarlar butun dunyoga mashhur bo'ldi. Keyingi davrda yashab o'tgan mufassirlar ushbu asarlardan keng foydalanib, o'z tafsirlarini yozishdi va hattoki bugungi kungacha islom bilim yurtlarida darslik sifatida o'qitib kelinmoqda.

ASOSIY QISM

Ushbu mufassirlardan biri, dastlabki tafsir kitoblaridan birining muallifi imom Abu Muhammad Abd ibn Humayd ibn Nasr al-Kissiy (fatha bilan va shin bilan al-Kashshiy ham deyiladi)dir. Asl ismi Abdul Hamid (vaf. 248/863) bo'lib, hijriy 170-yildan keyin hozirgi Qashqadaryo hududida joylashgan qadimgi Kesh shahrida tug'ilgan. Yazid ibn Horun (vaf. 206/821), Muhammad ibn Bashir al-Abdiy (vaf. 203/818), Muhammad ibn Bakr al-Barsoniy (vaf. 203/818), Abdurrazzoq al-Sanoniyy (vaf. 211/827) va boshqa bir qancha mashhur ulamolar unga ustozlik qilishgan. Abdulhamid ibn Humayd Keshiy ilm izlab Makka, Madina, Bag'dod, Basra, Kufa va boshqa ko'pgina shaharlarga borib, Alloma Abu Dovud Taylosiy (IX asr boshi), Abu Bakr ibn Abu Shayba (vaf. 235/849), Umar ibn Yunus Yamomiy (IX asr boshi) kabi o'nlab ulamolardan hadislar rivoyat qiladi. Buyuk muhaddislar bo'lgan imom Buxoriy, imom Muslim (vaf. 261/875), imom Termiziy, Bakr ibn al-Marzabon al-Samarqandiy (IX asr oxiri) va boshqa bir qancha ulamolar undan ta'lim olgan va hadislar rivoyat qilgan. U o'zi to'plagan hadislarining barchasini jamlab "Musnad al-Kabir" asarini yozadi. U yozgan tafsir naqliy tafsir hisoblanib, bizgacha uning bir parchasi yetib kelgan. Ushbu parchada Oli Imron surasi hamda Niso Surasining tafsiri keltirilgan va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tafsirning yozilish uslubi haqida ulamolar yaxshi baho berib, tafsir bil ma'sur, yani hadislar, sahoba va tobeinlarning rivoyatlari asosida yozilgan tafsir ekanligini, shuning bilan birga ba'zi o'rinlarda zaif hadislar va isroiliyot qissalari ham rivoyat qilinganini aytishadi [2,3].

Movarounnahr diyorida birinchilardan bo'lib tafsir yozgan ulamolardan yana biri Moturidiya

ta'limoti asoschisi Abu Mansur Moturidiy bo'lib, bu sohada o'zining "Ta'vilot ahl as-Sunna" nomli asarini yozgan. Ushbu asar boshqa tafsirlardan o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Imom Moturidiy bu asarni yozishda o'zgacha yondashib ko'proq tafsir emas balki ta'vil qiladi va tafsirining avvalida ta'vil va tafsirning farqi xususida shunday yozadi: "Tafsir bu so'zning ma'nosi qat'iy mana shu deyish va Alloh o'sha so'zdan mana shuni nazarda tutgan deb, guvohlik berishdir. Agar bunga dalili bo'lsa u holda so'zi to'g'ri, agar unday bo'lmasa, unda faqat o'zining ra'yi bilan tafsir qilgan bo'ladi. Bu man qilingandir. Ta'vil esa, biror so'zning taxminiy ma'nosini qat'iy deb aytmay va Allohning nazarda tutgani mana shu, deb guvohlik bermay o'sha ma'noni boshqa ma'nolaridan ustun qilishdir" [5]. Shuningdek, bu asar aqidaviy oyatlarga ko'proq e'tibor qaratilganligi va turli oqimlarga raddiyalar berilganligi bilan ham ajralib turadi.

Imom Moturidiy ko'proq naqliy dalillar keltiradi va "Ba'zilar deydi", "Boshqalar deydi", "Aytiladiki ...", "Falonchi ... deydi" kabi lafzlardan foydalanadi. Ba'zan esa aqliy yondashib "Ehtimol qilinadiki" kabi jumladan foydalanadi. Gohida oyatlarda vorid bo'lgan qiroatlarni keltirib, ularning qaysi dalilga asosan o'qishlarini tushuntirib ketadi. Shuningdek, oyatlarning nozil bo'lish sabablari, makkiy yoki madaniyiligi, nosix va mansux oyatlar, suralarning fazilatlarini hamda ba'zi so'zlarning lug'aviy ma'nosini izohlab, Qur'on, hadis, sahobalarning so'zlaridan, gohida esa ba'zi mashhur shoirlarning she'rlaridan dalillar keltiradi. Imom Moturidiyning ushbu asari hanafiy mazhabi asosida yozilgan, Ahli sunna val jamoaning aqidasi himoya qiladigan, ulamolar tomonidan yuksak darajada e'tirof etilgan hamda Movarounnahrda yozilgan ilk tafsirlardan biri sifatida bugungacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmasdan, ko'pgina islom bilim yurtlarida darslik sifatida o'qitib kelinayotgan mo'tabar manbadir [2,3].

Imom Abu Bakr al-Qaffol Muhammad ibn Ali ibn Ismoil ash-Shoshiy (vaf. 366/976) Movarounnahrlik mashhur mufasssirlardan biridir. U fiqh, hadis, tafsir, usul va arab tilshunosligida yetuk olim bo'lgan. U fiqhda shofei mazhabida, aqidada esa ash'ariylik ta'limotida bo'lgan. Xurosonda imom Abu Bakr Muhammad ibn Is'hoq ibn Xuzayma (vaf. 311/923) va uning safdoshlari, Iroqda Abdulloh ibn Is'hoq al-Madoiniy (vaf.

228/843), Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (vaf. 310/923) va boshqa ulamolardan dars olgan. Imom Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiyning hayotini o'rganganda bir ajib holatga guvoh bo'lamiz. Ya'ni u o'ttiz yoshga yetganida ilm yo'liga kirgan va qisqa vaqt ichida yuksak darajaga erishgan. U dastlab fiqh ilmiga muhabbat qo'yadi va o'z yurtidagi ulamolardan ilm olishni boshlaydi, ilm istab Xurosonga, so'ngra Iroq, Hijoz va Shom diyorlariga safar qiladi. U "at-Tafsir al-kabir", "Daloil an-nubuvvat", "Adab al-qodiy", "Mahosin ash-sharia", "Javomi al-kalim" va "Fi usul al-fiqh" kabi asarlari bilan islom dinining rivojiga ulkan hissasini qo'shgan.

Olimning tafsir sohasiga ham o'z hissasini qo'shib, "at-Tafsir al-kabir" asarini yozgani ma'lum. Ushbu asar bir qancha tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Shu bilan birga Roziy (vaf. 311/923), imom Qurtubiy (vaf. 671/1272), Abu Hayyon (vaf. 745/1344), imom Suyutiy (vaf. 911/1505), keyingi davr ulamolaridan imom Qosimiy, Olusiy (vaf. 1270/1854), Abu Saud (vaf. 982/1574) kabi ulamolar o'z asarlarida Imom Qaffol ash-Shoshiyning tafsiridan naql qilishgan. Ushbu tafsir keng yoritilgan bo'lib, imom oyatlarning tafsirlariga doir ko'pgina qarashlarni keltirgan. Shuningdek, oyatlarning nozil bo'lish sabablari va lug'aviy ma'nolarini zikr qilgan. Bu tafsir ko'proq naqliy tafsir hisoblanib, asosan, Qur'onni Qur'on bilan, so'ngra hadisi shariflar, sahobalarning rivoyatlari hamda tobeinlarning so'zlari bilan sharhlangan. Shu bilan birga mufasssir fiqhiy masalalarda o'z ijti'od va tarjihotlarini keltiradi [2,6].

Faqih, muhaddis, zohid, laqabi "Imom al-hudo" va "faqih" bo'lgan, Abu Lays Samarqandiy nomi bilan mashhur Abu Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim ibn al-Xattob as-Samarqandiy (vaf. 373/983) fiqh, hadis sohalaridan tashqari tafsir sohasida ham mo'tabar asar yozib qoldirgan. Ushbu asar "Tafsir al-Qur'on" deb nomlansada, hozirda "Bahr al-ulum" nomi bilan mashhurdir. Abu Lays Samarqandiyga tegishli bo'lgan tafsir "Bahr al-ulum" ekanligi to'g'risida ulamolarning turli xil qarashlari mavjud. Ba'zilar "Bahr al-ulum" Abu Lays Samarqandiyning tafsiri desalar, ba'zilar esa u Alouddin Aliy ibn Yahyo as-Samarqandiyga (vaf. 450/1145) tegishli deyдилar va bu Hoji Xalifa (vaf. 1068/1657), Zirikliy (vaf. 1396/1976) va boshqalarning fikri. Abu Lays Samarqandiyning tafsirini esa ko'pgina tadqiqotchilar "Tafsir al-

Qur'on", "Tafsir al-Qur'on al-karim", "Tafsir al-Qur'on al-azim", "Tafsiru Abu Lays" kabi nomlar bilan nomlashgan. Al-Azhar ulamolaridan Shayx Aliy Muhammad, Shayx Odil Ahmad va doktor Zakariyo Abdulmajidlar esa ushbu tafsirni tahqiq qilishib, "Tafsiru Samarqandiy al-musamma bahr al-ulum" ya'ni Samarqandiyning "Bahr al-ulum" deb nomlanuvchi tafsiri deb nomlashgan. Ushbu asarning uslubiga keladigan bo'lsak, ko'pchilik ulamolar uni naqliy tafsirlar sirasiga kiradi deyishgan [2,6].

Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad Abu Nasr as-Samarqandiy al-Haddodiy. U hijriy to'rt yuzinchi yillar atrofida yashab ijod qilgan va Qur'on, tafsir, arab tili sohalarida peshqadam ulamolardan bo'lgan. Abu Nasr as-Samarqandiy al-Haddodiy tafsir va Qur'on ilmlari sohasiga, xususan, Movarounnahr tafsir ilmiga o'zining "al-Muvaddih li-ilm al-Qur'on", "al-Madخال li-ilm tafsir kitobilloh", "al-G'uniyatu fi-l-qiroat" kabi asarlarini yozib qoldirish bilan ulkan hissasini qo'shgan. Uning "al-Muvaddih fi-t-tafsir" asari qisqacha bo'lib, Qur'oni karimda kelgan g'arib so'zlarni, ya'ni sharh talab qilinadigan so'zlarni va ma'nosi mujmal bo'lgan iboralarni bayon qilib bergan. Ushbu kitob 113 saxifa bo'lib, unda 200 ta so'zga sharh yozgan, ko'pgina mashhur arab shoirlarining she'rlaridan dalil va misollar keltirgan. Abu Nasr as-Samarqandiy al-Haddodiy tafsirga oid ikkinchi asari "al-Madخال li-tafsiri kitabillah" ning muqaddimasida, "al-Muvaddih li-ilm al-Qur'on"ni yozib tugatgandan so'ng ushbu asarni o'g'li Muhammad Ne'matulloh va boshqa musulmon birodarlariga tuxfa sifatida yozganligini aytadi [2,9].

Ja'far ibn Muhammad ibn al-Mu'taz ibn Muhammad ibn al-Mustag'firiyy ibn al-Fath ibn Idris Abul Abbos al-Mustag'firiyy an-Nasafiy (vaf. 432/1041) faqih, hofiz, muhaddis bo'lgan. U islom dinining turli yo'nalishlarida bir qancha asarlar yozgan. Ulardan "Ma'rifat as-Sahoba", "Daloil an-Nubuvva", "ash-Shamoil", "Tarix Nasaf", "Tarix Kesh", "at-Tibb" kabilarni aytish mumkin. Shuningdek, Qur'on ilmiga doir "Fazoil al-Qur'on" asarini yozgan. Ushbu asarni suralarning tartibi asosida vorid bo'lgan hadislar bilan sharhlagan [2,3,6].

Muhammad ibn Umar ibn Muhammad ibn Umar Abulqosim az-Zamaxshariy al-Xorazmiy (vaf. 538/1144) nahv, lug'at, balog'at, hadis va tafsir sohalarida yetuk olim bo'lgan. U hijriy 467-yilda

Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topgan. Ushbu imom nafaqat Movarounnahr tafsir ilmiga balki butun islom tafsirshunosligiga ulkan hissa qo'shgan ulamolardan biridir, chunki u yozgan tafsirdan juda ko'plab mufasssirlar o'z asarlarida foydalanganlar. U "Faxr Xuvarizm", "Jorulloh" laqablari bilan mashhurdir. Makkada yashagan paytlarida Abu Bakr Abdulloh ibn Talxa ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yobiriy al-Andalusiyydan (vaf. 516/1122) Sibavayhning kitobini o'qigan, Shayx Sadid Xiyotiydan (vaf. XII asr boshi) fiqh ilmini, Muhammad Usuliydan (vaf. XII asr boshi) usuli din va tafsir ilmlarini o'rgangan. Alloma yozib qoldirgan asarlardan "Asos al-balog'a", "al-Qustos fi ilm al-aruz", nahvga doir "al-Mufasssal", hadisga oid "al-Farq fi g'arib al-hadis" va tafsir sohasidagi mashhur "Tafsir al-Kashshof" kabilarni keltirish mumkin. Imom Zamaxshariyning tafsiri haqida ulamolar turli xil fikrlarni bildirishgan.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o'zining "Qur'on ilmlari" kitobida ushbu asar to'g'risida shunday fikrlarni keltirgan. "Al-Kashshof" tafsiri haqida ulamolar juda ko'plab yaxshi maqtovlarni aytganlar. Ba'zilar "Agar "al-Kashshof" bo'lmaganda, Qur'oni Karimning ma'nolari to'liq kashf bo'lmay qolar edi", degan. Ulamolar "Kashshofning" quyidagi xususiyatlarini ta'kidlaydilar:

- keraksiz va ortiqcha narsalardan xoli ekani;
- qissa va isroiliyotdan salomatligi;
- ma'nolarni bayon qilishda arab tili va uning uslublariga suyanishi;
- ma'oniy va bayon ilmlariga hamda balog'atga alohida e'tibor berganligi;
- savol-javob uslubini ishlatgani. Imom Zamaxshariy ma'lum masalalarni bayon qilish asnosida "Agar sen unday desang, men bunday deyman" uslubini ishlatgan. "Al-Kashshof"ning maqtovi aytilgan gaplar juda ham ko'p. Shu bilan birga, uni tanqid qilganlar ham oz emas. Tanqidlarning xulosasi ikki narsaga borib taqaladi. Birinchisi – muallifning mu'taziliy fikrlari va tafsirda hadislarning zaif va to'qimalarini ham keltirgani. Keyingi ulamolardan ikkitasi "al-Kashshof"dagi ushbu ikki nuqsonni ham to'ldirganlar. Imom Ahmad ibn Muhammad ibn Munir "al-Insof" nomli kitob yozib, "al-Kashshof"dagi mo'taziliy fikrlarni to'g'irlashni yo'lga qo'ydi. Imom Abdulloh ibn Yusuf Zaylaiy "al-Kashshof"dagi zaif va soxta rivoyatlarni aniqlab chiqdi. "Al-Kashshof" tafsiri

ushbu ikki ilova ila nashr qilindi. Bu katta foyda berdi” [3,9].

Muhammad ibn Muhammad Burhonuddin an-Nasafiy (vaf. 686/1287) Faxr ar-Roziyning (vaf. 606/1209) tafsirini talxis qilib, o‘zining “al-Vodix fi muxtasar mafotih al-g‘ayb li-Faxr ar-Roziy” nomli asarini yozish bilan tafsir ilmiga o‘z hissasini qo‘shgan. Uning kunyasi Abul Fadl bo‘lib, Burhonuddin laqabi bilan mashhur bo‘lgan. Burhonuddin an-Nasafiy “Makorim al-axloq”, “al-Muqaddima an-Nasafiya”, “al-Fusul fi ilm al-jadal”, “Daf an-nusus van-nuqud”, “Sharh al-asmo al-husno” kabi bir qancha asarlarni yozgan. U haqida imom Zahabiy shunday yozadi:

“Shayx Burhonuddin an-Nasafiy hanafiy, faylasuf, mutakallim, mantiqchi va ko‘p tasnifotlar sohibi edi”. Uning tafsirga oid “al-Vodix fi muxtasar mafotih al-g‘ayb li-Faxr ar-Roziy” asarini tahqiq qilgan. Ulamolar ushbu asarning uslubi haqida yozib, asarning boshidan oxirigacha Faxr ar-Roziyga ergashganini, afzal va muxtor o‘rinlarni aytib ketganligi hamda ba’zi qismlarini qoldirib, ba’zi qo‘shimchalar qilganligini aytadilar.

Abulbarakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud (vaf. 710/1310) Movarounnahr diyorida yetishib chiqqan eng buyuk mufasssirlardan biridir. Uning laqabi Hofiz ad-din bo‘lib, Abulbarakot kunyasi bilan mashhurdir. Imom Nasafiy dastlab ilm olishni o‘z yurti ulamolaridan boshlab, yoshlik chog‘idayoq Qur’oni karimni to‘liq yod oladi. So‘ngra Muhammad ibn Abdussattor (vaf. 642/1244), Hamid ad-din az-Darir (vaf. 666/1267), Badruddin Javohirzoda (vaf. 651/1253) kabi ulamolardan fiqh ilmini o‘rganadi. Imom Nasafiyning va uning asarlarini avvalgi va oxirgi ulamolar e’tirof qilishgan va qilishmoqda. U turli sohalarga oid turli xil asarlar yozib qoldirgan. Shulardan: “Kanz ad-daqiq”, “al-Manor fi usul al-fiqh”, “Kashf al-asror”, “al-Vofiy fil-furu”, “al-Uqda fi usul ad-din” kabilarni aytib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Imom Nasafiyning tafsirga oid asari bu – ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan “Madorik at-tanzil va haqiq at-ta’vil”dir. Muallif uni yozishda Imom Bayzoviyning va Imom Zamaxshariyning “al-Kashshof” tafsirlaridan keng foydalangan. Ushbu asar islom ulamolari tomonidan yuksak baholangan, musulmonlar uchun nihoyatda foydali bo‘lgan, bugungi kungacha islom bilim yurtlarida darslik sifatida o‘qitib kelinayotgan qimmatli manbadir. Shu bilan birga bu asar o‘rtacha hajmli, lafzlari yengil va ravon, unda Ahli sunna val jamoa

aqidasi yoritilgan, turli xil bid’at va xurofotlardan, buzuq aqidaviy qarashlardan xoli bo‘lgan mo‘tabar manbadir. Shuningdek, bu asar naqliy tafsirlar sirasidan bo‘lib, Imom Nasafiy sahih hadislar, sahobalardan kelgan rivoyatlar asosida hamda arab tilining keng imkoniyatlaridan, e’rob, qiroat, balog‘at, fasohat, badi va bayon kabi ilmlardan foydalanib, isroiliyotlardan imkon qadar kamroq foydalangan holda ta’lif qilgan [2,3,6].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshqa islom ilmlari singari tafsir ilmi ham Movarounnahrda islomning dastlabki asrlaridayoq kirib kelgan. Ilk davrlarda mashhur hadis to‘plamlari tarkibida bo‘lgan bu ilm hijriy ikkinchi asrga kelib mustaqil bo‘la boshladi va bu zaminda ilk tafsir kitoblari yozila boshlandi. Natijada juda ko‘plab mufasssirlar yetishib chiqdi va ular yozgan tafsirlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksinch, ularni butun islom olami e’tirof etib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – 517 б.
2. Doktor Ahmad al-Amir Muhammad Johin Ismoil. Al-Mufasssirun fi biladi movarounnahr. – Misr: Dor al-kutub al-misriy, 2013. –137 b.
3. Maxsudov D. Tafsir ilmiga kirish (O‘quv qo‘llanma). – T.: “Qaqnus” nashriyoti, 2019. – 186 b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur‘on ilmlari. – T.: “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2013. – 504 b.
5. Qur‘onshunoslikka oid ilmlar (matn) / Abdullayev A. va boshqalar; mas‘ul muharrir: Usmonov I. – T.: “Movarounnahr”, 2016. – 160 b.
6. Обидов Р. Куръон ва тафсир илмлари. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2003. – 448 б.
7. Qur‘onshunoslik (o‘quv qo‘llanma) / tuzuvchi: Abdullayev A.; mas‘ul muharrir: Z.Islomov. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 192 b.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 6-juz. – T.: “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2017. – 504 b.
9. Al-Hofiz Jaloliddin Suyutiy. Tabaqot al-mufasssirin. – Kuvayt: Dor an-navodir, 2010. – 190 b.
10. Al-Hofiz Shamsiddin Muhammad ibn Ali ibn Ahmad ad-Dovidiy. Tabaqot al-mufasssirin. 2-jild. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1983. – 884 b.